

ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

*Oriental Universiteti 2-kurs
magistranti Obidov Jahongir*

Annotatsiya

Mazkur maqolada islom moliyasi faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari, ularning iqtisodiy va huquqiy asoslari hamda zamonaviy moliyaviy tizimdagi oʻrni tahlil qilinadi. Tadqiqotda shariat qoidalariga asoslangan moliyaviy munosabatlarning oʻziga xos jihatlari, xususan ribo (foiz)ning taqiqlanishi, risk va foydani adolatli taqsimlash, real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish hamda ijtimoiy masʼuliyat tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, islom moliyasining anʼanaviy moliya tizimidan farqli jihatlari hamda uning iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari islom moliyasi institutlari faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: Islom moliyasi, shariat, ribo, murabaha, mudaraba, musharaka, sukuk, takaful, halol investitsiya, moliyaviy barqarorlik, risklarni taqsimlash.

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные принципы организации деятельности исламских финансов, их экономические и правовые основы, а также роль в современной финансовой системе. Особое внимание уделяется специфике финансовых отношений, основанных на нормах шариата, включая запрет риба (процентов), справедливое распределение рисков и прибыли, финансирование, обеспеченное реальными активами, а также принципы социальной ответственности. Кроме того, раскрываются отличительные особенности исламских финансов по сравнению с традиционной финансовой системой и их значение в обеспечении экономической стабильности. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для эффективной организации и развития институтов исламских финансов.

Ключевые слова: Исламские финансы, шариат, риба, мурабаха, мудараба, мушарака, сукук, такафул, халяльные инвестиции, финансовая стабильность, распределение рисков.

Abstract

This article examines the fundamental principles of organizing Islamic finance activities, their economic and legal foundations, and their role within the modern financial system. The study highlights the specific features of financial relations based on Sharia principles, including the prohibition of riba (interest), fair distribution of risks and profits, asset-backed financing, and the principles of social responsibility. Furthermore, the paper analyzes the differences between Islamic finance and the

conventional financial system, as well as the significance of Islamic finance in ensuring economic stability. The findings of the study provide important theoretical and practical insights for the effective organization and development of Islamic financial institutions.

Keywords: Islamic finance, Sharia, riba, murabaha, mudarabah, musharakah, sukuk, takaful, halal investment, financial stability, risk sharing.

Islom – inson hayoti va faoliyatining barcha bosqich va jabhalarida ishtirok etuvchi va tartibga solib turuvchi keng qamrovli dindir. Jumladan, har bir inson hayotining ajralmas va muhim qismi bo‘lgan moliyaviy amaliyotlar islomning fiqh ul-muomala deb ataluvchi sohasi doirasiga kiradi. Islom va uning moliyaga (ya’ni islom moliyasi) tegishli jihatlari va tushunchalari yuzasidan ma’lumot bergan edik (biz shu masala bo‘yicha tayyorlagan jadval 2 mart kuni sahifamizga qo‘yilgan).

Islom moliyasi islom huquqi asosida ishlaydigan moliya tizimdir. Ushbu tizim, bizning “Islom moliyasi sohasining salohiyati” haqidagi maqolamizda ko‘rsatib o‘tilgan bir qator asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan¹. Islom moliyasining asosiy tamoyillari – barcha shartnoma va bitimlarda adolat va teng shart-sharoitni ta’minlash hisoblanadi. Bu, quyidagi uch asosiy taqiq orqali namoyon bo‘ladi: sudxo‘rlik, “g‘arar” (*axborot muvozanatining buzilishi oqibatida noaniqlik/mavhumlik paydo bo‘lishi, ya’ni bitim ishtirokchilaridan biri shartnoma bo‘yicha to‘liq axborotga ega bo‘lmaganligi tufayli o‘zini katta xatarga ro‘baro‘ qilishini bildiradi*) va “maysir” (qimor o‘yinlari va spekulyatsiya/chayqov amaliyoti). Bizning “Tavakkalmi, gardkammi?” deb nomlangan maqolamiz maysirning man etilishiga bag‘ishlangan. Kelasi maqolalarimizda ribo va g‘ararning taqiqlanishi sabablariga batafsil to‘xtalib o‘tamiz².

Islom va an’anaviy bank-moliyasi o‘rtasidagi asosiy falsafiy tafovutlar. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan taqiqlar pul bilan o‘zgacha muomala qilinishiga olib keladi. An’anaviy bank pulni daromadi kafolatlangan sotish yoki ijaraga berish mumkin bo‘lgan mahsulot sifatida ko‘radi, chunki berilgan qarz mablag‘larini yo‘qotish xavfi juda kam (qarz mablag‘lari ham, qarz bo‘yicha foizlar ham loyihaning muvaffaqiyati yoki inqirozidan qat’iy-nazar doimo kafolatlangan bo‘ladi), islom banki esa o‘zini biznes bo‘yicha hamkordek tutadi va hamkorlikning turiga qarab xavflarni bo‘lishadi. Barchaga ma’lumki, agar ikki tomon xatar va yo‘qotishlarni o‘zaro bo‘lishsa ular moliyaviy amaliyotlarda ehtiyotkorlik bilan ish tutadilar. Shu tariqa, islom moliyasi adolatliroq, moliyaviy barqaror hamkorlik muhiti yaratilishini ta’minlaydi³. G‘ararni taqiqlab, islom banklari o‘zlarining mijozlar bilan bo‘lgan

¹ Usmani M.T. *An Introduction to Islamic Finance*. – Karachi: Maktaba Ma’ariful Qur’an, 2002. – B. 11–18

² Kahf M. *Islamic Economics: What Went Wrong?* – Jeddah: Islamic Research and Training Institute, 2004. – B. 22–31.

³ Chapra M.U. *Islam and the Economic Challenge*. – Leicester: The Islamic Foundation, 1992. – B. 211–218

munosabatlarida ikkima'nolilik, noaniqlik, hiyla-nayranglar va xatarlarning oldini oladi⁴. Qancha qancha odamlarning bilim yetishmasligi, soddaligi va johilligi sabab hiylagar mutaxassislar, kompaniya hamda boshqa muassasalarning aldovi oqibatida jiddiy zarar ko'rgani ko'pchilikka ma'lum. Islom bir tomonning boshqa tomon tarafidan har qanday ko'rinishda bo'lmasin ekspluatatsiya qilinishini taqiqlaydi va shu orqali o'zaro kelishayotgan tomonlar o'rtasida boylik va farovonlikka erishishda asosiy sanalgan ishonch, ishbilarmonlik munosabatlarida esa hamkorlik va to'g'rilik muhitini yaratadi⁵. G'ararning taqiqlanishi islom moliyasini spekulativ derivativlar (hosilaviy qimmatli qog'ozlar) tufayli paydo bo'ladigan katta tizimli xatarlardan qutqardi. Shu yerda mashhur sarmoyachi Uorren Baffetning so'zlarini yodga olamiz: "Hosilaviy qimmatli qog'ozlar moliyaviy qirg'in qurolidir". Ko'pchilik moliyachilar derivativlar qimor o'yinlarinig qonuniylashtirilgan shakli ekanligini ta'kidlashadi. Va nihoyat, islom bank-moliyasi iqtisodiy "pufak" va inqirozlarni yuzaga keltiruvchi haddan oshiq moliyaviy chayqov amaliyotini (masalan, ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozoridagi spekulatsiyalar jiddiy inqirozlarga olib keladi, ularning so'nggisi 2008 yilda yuz bergan jahon moliyaviy inqirozidir), shuningdek boyliklarni adolatsiz ravishda taqsimlanishiga olib boruvchi qimor o'yinlarini taqiqlaydi⁶.

Taqiqlardan tashqari islom moliyasining eng muhim va ajoyib xususiyatlaridan biri uning aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi shartligidir. Moliyalashtirishning an'anaviy shaklida bank va moliya muassasalari faqat pul birliklari bilan ishlaydilar. Ana shuning uchun ham ular mol / mahsulotlar bilan savdo qilishni taqiqlaydi⁷. Islom moliyasida esa pul savdo moli sifatida tan olinmaydi, chunki u ichki qiymatga ega emas, u bor-yo'g'i almashinuv vositasi. Islom banklari pul evaziga ichki qiymatga ega biror narsaning ustiga ustama qo'yib sotish evaziga foyda oladi. Shuning uchun ham an'anaviy moliya muassasalaridan farqli ravishda islomda moliyalashtirish aktivlarga asoslangan. Yuqoridagi holat o'z-o'zidan moliyaviy barqarorlik va real iqtisodiy o'sish hamda rivojlanishni ta'minlaydi. An'anaviy bank krediti esa, iqtisodiyotdagi real sarmoyaga qat'iy aloqasi yo'q. Aktivlar bilan ta'minlanmagan kreditlarni berish, ularning ko'lamini kengaytirish va shu orqali jahon moliya tizimini vaqti-vaqti bilan inqirozlarga giriftor qilish an'anaviy banklarning asosiy xususiyatidir. Vanihoyat, islom moliyasi mushoraka va mudoraba sifatida tanilgan islom moliya mahsulotlari orqali foyda va zararni taqsimlash tamoyilini ilgari suradi. Mazkur ilg'or tamoyil samarali ishlab chiqarishni samarasiz ishlab chiqarishdan ajratib olish imkonini beradi va boyliklarni yaxshiroq tasarruf qilishga hissa qo'shadi (chunki har ikki tomon bundan manfaatdor). Bu shuningdek, ta'minlanmagan pullar ko'payishini ham oldini oladi va

⁴ Usmani M.T. *An Introduction to Islamic Finance*. – Karachi: Maktaba Ma'ariful Qur'an, 2002. – B. 43–52.

⁵ Kahf M. *Islamic Economics: Principles and Analysis*. – Jeddah: IRTI, 2005. – B. 87–95

⁶ Krugman P. *The Return of Depression Economics and the Crisis of 2008*. – New York: W.W. Norton & Company, 2009. – P. 163–178

⁷ Usmani M.T. *An Introduction to Islamic Finance*. – Karachi: Maktaba Ma'ariful Qur'an, 2002. – B. 71–89.

ijtimoiy adolatni ta'minlash, hamda barcha tomonlarning moliyaviy farovonlikka erishishiga hissa qo'shadi. Ko'pchilik hali islom va an'anaviy banklar tomonidan taklif qilinadigan mahsulot hamda xizmatlar o'rtasidagi farqni tushunmaydi. Ba'zilar islom banklari an'anaviy bank mahsulot va xizmatlarining nomi o'zgartirilgan ko'rinishi deb hisoblasa, boshqalari islom banklari an'anaviy "foiz"ni "daromad" deb nomlashadi va odamlarni chalg'itish uchun arabcha atamalardan foydalanishadi deb iddao qilishadi. Islom banki qay tariqa ishlashini bilmay turib bu kabi xulosalarga kelish yaramaydi. Chunki bunday xulosa va iddaolar islom bankchiligi rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Albatta biz islom bankchiligi va uning ayrim mahsulotlari rivoji jarayonida turli muammolarga duch kelayotganligimizni tan olamiz. Chunki bu soha hali to'liq o'rganib bo'lingani yo'q. Ushbu jarayon davomida xatolar yuz berishini inkor etib bo'lmaydi. Ammo bunday xato va kamchiliklar islom bankchiligining yaroqsizligini anglatmaydi. "Musulmonchilik astachilik" deganlaridek islom bankchiligi ham o'rganish / rivojlanish jarayonida va bunday xato-kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Asosiysi, jarayon orqaga emas, oldinga qarab harakatlanayotganligida. Shariatga mos keluvchi bank mahsulot va xizmatlarini ishlab chiqish va tatbiq etish juda murakkab jarayon, chunki bunda ko'pchilik, ba'zida tamomila qarama-qarshi maqsadlarni ko'zlovchi tomonlar, jumladan bank oliy boshqaruvi, mahsulotlarni ishlab chiqish bo'limi, shariat bo'limi, shariat maslahatchilari va boshqa bir qancha bo'limlar (chakana va korporativ banklar bo'limi, sarmoya (kapital) bozori, xatarlarni boshqarish, moliyaviy rejalashtirish va h.k.z.), shuningdek investitsiya masalalari bo'yicha mutaxassis-maslahatchilar, reyting agentliklari vakillari, huquqshunoslar va boshqalar ishtirok etadi. Shunga qaramay, islom banki oson yo'ldan borib, mahsulotlarning huquqiy shaklinigina o'zgartirib, an'anaviy bank tizimi mahsulotlaridan nusxa olmasligi juda muhim. Aksincha, islom moliya mahsulotlarining huquqiy shakli islomdagi hamkorlik va tadbirkorlikning haqiqiy ruhiyatini aks ettirishi lozim. Jamiyat, an'anaviy bank tizimida amal qiluvchi mijoz/omonatchi – bank, qarz oluvchi – bank kabi, asosan bank manfaatini ko'zlovchi moliyaviy munosabatlar, hamda islom bankchiligidagi ikki tomonning (ya'ni mijoz va bankning) birgalikdagi manfaatini inobatga oluvchi "mushoraka" (loyihalarni sarmoyaviy sherikchilik asosida moliyalashtirish), "murobaha" (oldi-sotdi shartnomasi orqali moliyalashtirish), "mudoraba" (loyihalarni ishonch asosidagi hamkorlik doirasida moliyalashtirish) "ijara" (ijara/lizing shartnomasi asosida moliyalashtirish), "istisna" (ishlab chiqarish sohasi loyihalarini moliyalashtirishga asoslangan shartnoma), "salam" (asosan qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan, oldindan moliyalashtirishni ko'zda tutuvchi shartnoma), "sukuk" (qimmatli qog'ozlar yordamida moliyalashtirish) kabi iqtisodiy-moliyaviy hamkorlik munosabatlari o'rtasidagi farqni anglashi va ikki tomon uchun ham birdek manfaatli bo'lgan bunday tizim, zamonaviy bank-moliya sohasini rivojlanishiga ham yordam berishi mukinligiga

ishonch hosil qilishi kerak. Islom banklari o‘z mijozlari bilan hamkorlik qilish orqali ular bilan tadbirkorlikning har qanday turiga xos bo‘lgan xatarlarni bo‘lishishini, xatarlarni bo‘lishish darajasi esa loyihalashtirilayotgan tadbirkorlik loyihasi, hamda moliyalashtirish uchun qo‘llanilayotgan mahsulot turiga bog‘liq bo‘lishini tushunib yetish, jamiyat a‘zolariga bu tizim imkoniyatlaridan to‘la ravishda bahramand bo‘lish imkonini beradi, hamda islom bankchiligining yanada rivojlanishini ta‘minlaydi.

1.1-Jadval.

Munosabat Turi	Shartnoma / bitim turi	Islom banki duch keladigon xatarlar
Xamkorlik	Musharaka shartnomasi (sherikchilik) va Mudaraba (ishonch asosida moliyalashtirish) shartnoma turlari	Investitsiya bilan bog‘liq xatarlar (yo‘qotish xatari): bankning loyihaga kirishgan vaqtdan boshlanib, loyiha yakunlangunga qadar davom etadi.
Savdo bitimi	Murobaha (nasiya yoki to‘lovi kechiktirilgan savdo turi)	<p>Bozor narxining o‘zgarishi bilan bog‘liq xatarlar – sotuvchi (bank) va xaridor o‘rtasida narx bo‘yicha kelishuvga erishilgan vaqtdan mahsulot xaridorga sotilgungacha davom etadi.</p> <p>Mahsulotga egalik qilish bilan bog‘liq xatarlar – bank tomonidan tovar sotib olingan vaqtdan uning xaridorga qonuniy yetkazilishigacha davom etadi.</p> <p>Kredit qaytmasligi xatari – bank mijozga nasiya asosida mahsulot berganidan boshlab, mijoz oxirgi to‘lovni amalga</p>

		oshirguniga qadar davom etadi.
Lizing Shartnomasi	Ijara shartnomasi (to‘lovi kechiktirilgan shartnoma turi)	Aktivlar (mol-mulk)ga egalik qilishdagi xatarlar – ijaraga beruvchi (bank)dan ijarachi (mijoz)ga aktiv berilgan vaqtdan boshlab, ijara muddati tugaguniga qadar davom etadi. Kredit qaytmasligi xatari – mulk ijaraga berilgan paytdan boshlab, mijoz so‘nggi to‘lovni amalga oshirguniga qadar davom etadi.

Islom banki duch keladigan xatarlar tavsifi. Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko‘rinib turibdiki, islom banki tomonlarning mavqe va rollariga qarab turli bosqichlarda turlicha xatar va tavakkalchilikka boradi. Tabiiyki, zamonaviy islom banklari xatar va tavakkalchilik darajasini kamaytirishning samarali vositalarini ishlab chiqishgan, hatto ayrim hollarda ular islom moliyasining asl mohiyatiga xos bo‘lgan xatarlarni bo‘lish/taqsimlash tamoyillariga muvofiq bo‘lmaganligi tufayli islom bank-moliya sohasiga bo‘lgan ishonchga putur yetkazadi. 1.2-jadval

Munosabat turi	Shartnoma / bitim turi	Islom banki duch keladigan xatarlar
Oldindan moliyalashtirish bitimlari	Salam shartnomasi (bu turdagi shartnomadan asosan qishloq xo‘jaligida foydalaniladi, bunda to‘lov oldindan amalga	Mahsulot yetkazib berish bilan bog‘liq xatarlar (sotuvchi/fermer kelishilgan mahsulotni yetkazib bermasligi, ya’ni bundan voz kechishi yoki yetkazib berishni kechiktirishi mumkin).

	<p>oshiriladi, mahsulot esa keyin (hosil olinganda) yetkazib beriladi)</p>	<p>Aktiv (mahsulot)ni yetkazib berish vaqtida yuzaga keladigan sifat xatari (bunda fermer kelishilgandek emas, balki pastroq sifatdagi mahsulot yetkazib berishi mumkin).</p> <p>Bozor narxlari o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar (shartnoma tuzilgan sana va mahsulot xaridorga yetkazib berilishi oralig'idagi davr mobaynida narx tushib ketishi mumkin) oldindan moliyalashtirish sanasidan boshlanib, mahsulot (bank tomonidan) sotilguniga qadar davom etadi.</p>
--	--	---

Shunday bo'lsa ham, har bir islom moliya mahsuloti bank tomonidan qabul qilinadigan turli tuman xatar va tavakkalchiliklarni namoyish etadi (bu esa, asosan kredit qaytmasligi xatari muammosiga ega an'anaviy banklardan farq qiladi). Masalan, agar islom banki mushoraka shartnomasi doirasida aksiyadorlik jamiyatiga kirsa, hamkorlik davom etguniga qadar zarar ko'rish xatariga ega bo'ladi. Murobaha bitimida bank mulkka (aktiv) egalik qilish davri mobaynida (ya'ni shu mulk sotilguncha) shu mulkni yo'qotish xatariga ega bo'ladi. Ijara shartnomalarida esa bank mulkka egalik huquqi mijozga o'tguniga qadar xatarga ega bo'ladi. Shu tariqa, islom bankchiligi tavakkalchilikning foydaga bo'lgan nisbati iqtisodiy jihatdan oqilona ekanligini namoyish etadi. Bunday bank tizimi mijozlarning ham, keng jamoatchilikning ham ehtiyojlarini qondiradi va boyliklarning adolatli taqsimlanishiga imkoniyat yaratadi.

Munosabat turi	Shartnoma / bitim turi	Islom banki duch keladigan xatarlar
<p>Ishlab chiqarishni moliyalashtirish</p>	<p>Istisno shartnomasi (ya'ni kelajakda ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan mahsulot savdosi bo'lib, bunda ishlab chiqaruvchi mahsulotni o'z homashyosidan tayyorlaydi)</p>	<p>Odatda istisno bitimida ishlab chiqaruvchi, bank (ya'ni moliya muassasasi) va mijoz (ya'ni xaridor) kabi tomonlar ishtirok etadi. Ushbu bitim doirasida bank quyidagi xatarlar bilan to'qnash keladi:</p> <p>Ijro (bajarmaslik) xatari – ishlab chiqaruvchi mahsulotni belgilangan muddatda ishlab chiqarmasligi yoki ishlab chiqarishni istamasligi va shu sababli bank mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib berish shartlarini buzishi mumkinligi.</p> <p>Sifat xatari – ishlab chiqaruvchi sifatsiz (buzuq yoki nuqsonli) mahsulotni yetkazishi va mijoz (bank) buni mahsulot yetib kelgandagina aniqlashi mumkinligi.</p> <p>Ishlab chiqarish xarajatlarining ortib ketishi xatari – ishlab</p>

		<p>chiqaruvchining xarajatlari kutilganidan (rejalashtirilganidan) oshib ketishi va bu uning o‘z majburiyatlarini bajarmasligiga sabab bo‘lishi mumkinligi.</p> <p>Aktivlarga egalik xatari – “yondosh (parallel) istisno” bitimidagi xatar bo‘lib, ishlab chiqaruvchi tomonidan yetkazilgan mahsulotlar xaridorga sotilishidan avval bankning zimmasida bo‘ladi.</p> <p>Mahsulot xususiyatlari bilan bog‘liq xatarlar – mahsulotning ishlab chiqaruvchi va bank/mijoz o‘rtasida kelishilgan xususiyatlari hamda mahsulot yetkazib berilganidan keyin aniqlangan xususiyatlar o‘rtasidagi farq tufayli yuzaga keladigan xatar.</p> <p>Kredit qaytmasligi xatari – mijoz mahsulot narxini to‘liq va o‘z vaqtida to‘lamasligi bilan bog‘liq xatar.</p>
--	--	---

1.3-Jadval Shunga qaramay, islom bank-moliya tizimining asosiy vazifasi biznes jarayonlarning har bir qismi shariatga to‘liq, ya’ni uning asl mohiyati va ruhiyatiga mos bo‘lishini ta’minlashdir. Bu esa katta daromad olishdan ko‘ra muhimroq vazifa. Mazkur holat juda muhim savolni keltirib chiqaradi: an’anaviy va islom bankchiligi o‘rtasida qanday farqlar bor? Maqolamizning keyingi qismi aynan an’anaviy va islom bankchiligi o‘rtasidagi asosiy nazariy va amaliy farqlar haqida bo‘ladi. An’anaviy va islom bankchiligi o‘rtasidagi tafovutlar. Quyida keltirilgan jadvalda an’anaviy va islom bankchiligi o‘rtasidagi asosiy nazariy va amaliy farqlar ko‘rsatib o‘tilgan.

An’anaviy bank	Asosiy jihatlar	Islom banki
Vazifa va amaliyotlari (kamchiliklardan xoli bo‘lmagan) insonlar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga asoslanadi.	Vazifa va amaliyotlar	Vazifa va amaliyotlari ilohiy qoidalarga asoslanadi.
Qat’iy axloqiy asosga ega bo‘lmagan moliyaviy tizim.	Axloq	Axloqiy me’yorlarga asoslangan moliya tizimi (ayni ayrim soha va korxonalarni moliyalashtirish va ayrim turdagi shartnoma/bitimlarni tuzish va amalga oshirish taqiqlangan).
Pulning vaqt o‘lchovidagi qiymati tushunchasi puldan pul ishlaydigan, biroq ichki qiymatga ega bo‘lmagan pullarga nisbatan qo‘llaniladi. Boshqacha qilib aytganda “serhosil pullar” konsepsiyasi.	Pulning vaqt o‘lchovidagi qiymati g‘oyasi	Pulning vaqt o‘lchovidagi qiymati konsepsiyasi ichki qiymatga ega real aktivlarga nisbatan qo‘llaniladi. Shuning uchun ularni (ya’ni aktivlarni) foyda evaziga sotishga ruxsat beriladi. Biroq puldan pul qilishga, ya’ni pulni kattaroq pul evaziga sotishga ruxsat berilmaydi.
Asosiy maqsad bank manfaatlari va daromadlarini himoya qilish.	Ustuvor yo‘nalish	Asosiy e’tibor aktivlarga asoslangan va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashi mumkin bo‘lgan loyihalarga qaratiladi.

An'anaviy bank	Asosiy jihatlar	Islom banki
Qarz vositachiligi (omonatchilardan pul olib, qarz oluvchilarga berish).	Biznes model	Hamkorlikka, ya'ni foyda va zararni bo'lishish tamoyiliga asoslangan munosabatlar.

Kreditlash moliyalashtirishning asosiy vositachisidir.	Chakana kredit	Bank o'z zimmasiga sotuvchi, ishlab chiqaruvchi, hamkor, ijaraga beruvchi va h.k. vazifalarini oladi.
To'lov kechiktirilganida jarima undiriladi.	Jarima	Muddati o'tgan har qanday to'lov uchun jarima undiriladi (bu istisno tarzida berilgan ruxsat), biroq bu undirilgan jarima moliya muassasasi ehtiyojlari uchun sarflanmaydi, balki bevosita xayriyaga yo'naltiriladi.
Spekulyativ, ya'ni chayqov amaliyotlari zamonaviy banklar tomonidan keng qo'llaniladi (masalan, ikkilamchi ko'chmas mulk yoki qimmatbaho qog'ozlar bozorini chayqov maqsadida moliyalashtirish).	Spekulyatsiya (chayqov amaliyoti)	Yuqori samarali chayqov vositalarini qo'llash taqiqlangan ("g'arar" va "maysir" tushunchalari).
Qarz hasan (foizsiz xayriya qarzi) tushunchasi mavjud emas.	Qarz hasan	Qarz hasan tushunchasi jamiyatda boyliklarni adolat bilan taqsimlash va jamiyat farovonligini ta'minlashning bir usuli sifatida ko'riladi.
Zakot tushunchasi mavjud emas.	Zakot	Zakot to'lanadi va bu ijtimoiy mas'uliyatning bir ko'rinishidir.

1.4-Jadval.






Islom bankchiligi muammolari. Xolislik nuqtai-nazaridan yuqorida keltirilgan jadvalda an'anaviy bankchilik islom bankchiligining eng oliy va sof konsepsiyasi bilan taqqoslanganligini, shuningdek, bunday sof konsepsiya asosida faoliyat yurituvchi islom bankini topish ham mushkul vazifa ekanligini tan olishimiz kerak. Bugungi

kunda faoliyat yurituvchi islom banklari 1970 yillarda bu tizim asoschilarini ilhomlantirgan falsafiy va oliymaqom asosdan muayyan darajada farq qiladi.

Hozirgi kunda islom bankchiligi barcha shakllarda namoyish etilgan: banklar va bank bo‘lmagan moliya muassasalar, yirik va mayda, ixtisoslashtirilgan va diversifikatsiya qilingan, an’anaviy va innovatsion, milliy va ko‘p millatli, ehtiyotkor va ehtiyotsiz, qat’iy tartibda boshqariladigan va erkin va h.k.z. Ayrim islom banki muassasalari, ayniqsa an’anaviy banklarning «islomiy darchalari» o‘z (an’anaviy) banklariga taqlid qilishsa, boshqalari keskin farq qiladi (an’anaviy banklardan). Ba’zilar ilohiy qonun-qoidalar asosida faoliyat yuritsa, boshqalari dindan mijozlarni jalb qilish usuli sifatida foydalanadi. Muammo shundaki, islom bankchiligining sof g‘oyalari obro‘sigajoylardagi voqelik sabab putur yetishi mumkin. Agar bu soha rivoji uchun kerakli qadamlar qo‘yilmasa, ya’ni asl islom bank-moliya sohasining o‘ziga xos jihatlari va eng asosiysi uning ruhiyati o‘rnatilmasa, jamiyatdagi bu sohaga bo‘lgan ishonch yo‘qoladi.

Islom bankchiligi xilma-xil muammolarga duch keladi. Shunga qaramay, asosiy vazifalardan biri – ushbu sohaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan holatga qaytmaslik. Islom bankchiligi va moliyasiga bo‘lgan ishonchni qayta tiklash va qo‘llab-quvvatlash vaqti keldi. Odamlar qaysi bank tizimidan foydalanishni o‘zlari tanlay olishlari zarur. Buning uchun esa ikkala bank tizimi rivojlanishiga ham teng imkoniyatlar berilishi, shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Islom moliyasi sohasining salohiyati quyidagi beshta tarmoq faoliyati orqali baholanadi:

-  Islom banklari
-  Takaful (islomiy sug‘urta)
-  Boshqa (turli) islom moliya muassasalari (investitsiya kompaniyalari, mikromoliya muassasalari va h.k.z.)
-  Sukuk (islomiy qimmatbaho kog‘ozlar)
-  Islom jamg‘armalari.

1.5-Jadval

№	Tarmoq/aktiv toifasi	IM aktivlarining ulushi	Hajmi (\$ mlrd.)	Muassasalar soni	Davlatlar soni
1	Islom banklari	71%	1 721	505	69
2	Takaful (islomiy sug‘urta)	2%	46	324	47
3	Boshqa (turli) islom moliya muassasalari	6%	135	560	49

№	Tarmoq/aktiv toifasi	IM aktivlarining ulushi	Hajmi (\$ mlrd.)	Muassasalar soni	Davlatlar soni
4	Sukuk (islomiy obligatsiya)	17%	426	2 590 (chiqarilgan sukuk soni)	25
5	Islom jamg'armalari	4%	110	1 410	28
Jami		100%	2 438		

Ko'rib turganimizdek, amalga oshirilgan amaliyotlar ko'lami va imkoniyatlari jihatidan islom moliya muassasalari (banklar, takaful va mikromoliya) bu sohaning asosini tashkil qiladi (1-3). Shu bilan birga sukuk va islom jamg'armalari moliya bozoridagi muhim sarmoya vositalaridan hisoblanadi (4-5). 2017 yil natijalariga ko'ra, islom moliyasi bo'yicha statistik ma'lumotlar 56 mamlakatni qamrab olgan. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra Eron, Saudiya Arabistoni va Malayziya islom moliya tizimining eng yirik bozorlari degan mavqeni ushlab turishibdi. Bu mamlakatlar ulushi umumiy bozorning 65 foizini (1,6 trln. AQSH dollari) tashkil qiladi. Islom moliyasining umumiy aktivlari Saudiya Arabistonida 8% ga va Malayziyada 16% ga o'sgan. Saudiya Arabistonidagi bu o'sish asosan ichki va tashki bozorlarda sukuk chiqarish bilan bog'lik. Shu bilan bir paytda, Eron aktivlaring pasayishi kuzatildi. Buning sababi esa Eron milliy valyutasining dollarga nisbatan qadrsizlanishi bo'ldi. Vaholanki, bu mamlakat tomonidan takdim etilgan hisobotlarga ko'ra islom moliya muassasalari aktivlarining milliy valyutadagi hajmi 13 foizga oshgan. 2017 yil 56 mamlakat ichida islom moliyasi aktivlarining eng tez o'sish sur'atlari Kipr, Nigeriya va Avstraliyada kuzatilgan.

Islom moliyasining asosiy tamoyillari. "Ribo" – sudxo'rlikning taqiqlanishi. Islom tarixidan ma'lumki, moliyaviy munosabatlarning manbalari juda boy. Jumladan, "Bayt ul-mol" jamg'armalari bunga misol bo'ladi. Mazkur jamg'armalar Payg'ambar davridagi ilk rasmiy moliyaviy tashkilot bo'lib, u davlat ehtiyojlarini sarmoya bilan ta'minlashga xizmat qilgan.⁸

Bank-moliya sohasida islom iqtisodiyoti ta'limoti tamoyillarini ko'p jihatdan G'arb iqtisodiy tushunchalariga so'zsiz muqobil sifatida qo'llash islom dinining umumiy tiklanishi, uning zamonaviy sharoitlarda sezilarli yuksalishi bilan bog'liq.

70-80-yillarda arab mamlakatlari iqtisodiyoti jahon xo'jaligining nihoyatda muhim elementiga aylandi va xolisona aytganda, hozirda dunyoning asosiy moliyaviy kuchlaridan biri rolini o'ynamoqda.⁹

⁸ Abdullaev R.V., Dusanov S.M. Islom iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlar. T.: "TIU", 2007. -4 b.

⁹ Pavlov V.V. Islamskie banki v islamskom finansovom prave. – M.: «Ankil», 2003. – 30 s.

Islomiy moliya tarmog‘i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o‘zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, islomiy moliya muassasalari yalpi aktivlari miqdori 2,5 trillion AQSh dollarini tashkil etadi va yiliga 15–20% ga o‘sib bormoqda. Aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo‘lgan davlatlar uchun ushbu tarmoqni rivojlantirish, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi.¹⁰

Islom iqtisodiyoti va moliyasi bir qator shar‘iy tamoyillarga asoslanadi. Ular ichida eng asosiysi - “*ribo*”, ya’ni sudxo‘rlikning har qanday iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarda taqiqlanishi hisoblanadi. Qur’oni karimning “Baqara” surasi, 275 - oyatida shunday deyilgan:

“*Alloh savdoni halol va riboni harom qildi.*”¹¹

“*Ribo*” so‘zi arab tilida “ortish, ko‘payish, yuksalish” ma’nolarini anglatadi.

Uning shar‘iy ma’nosi esa, qarzni qaytarishdagi har qanday ziyodalikdir. Aksariyat diniy adabiyotlarda riboni foiz va har qanday foizni ribo deb talqin qilinadi. Aslida bunday yondashuv noto‘g‘ri bo‘lib, u ko‘pgina chalkashliklarga olib keladi. Chunki, nafaqat banklarda, balki savdo-sotiq va iqtisodiyotning barcha sohalarida hisob-kitoblar foizlar vositasida yuritiladi. Bu borada turkiyalik olim Elmali Muhammad Hamdi Yasir ribo va foizning bir ma’noda kelmasligini izohlab, shunday deydi: “Ribo, aslida ziyodalanmoq, ko‘paymoq ma’nolariga masdar bo‘lib, foiz esa maxsus ortiqchalikni bildiradi.”¹²

«Sudxo‘rlik» qarzning asosiy miqdoridan tashqari foiz undirish amaliyoti sifatida uzoq tarixga ega. Bundan to‘rt ming yillar avval va undan keyingi davrlarda sudxo‘rlik amaliyoti mavjud bo‘lgan, axloqiy, ma’naviy, diniy va huquqiy asoslariga ko‘ra qoralangan, man etilgan, nafratlanilgan va jazolangan. Hinduiylik, buddaviylik, yahudiylik, xristianlik va islom diniy muassasalari uning ko‘zga ko‘rinarli va faol tanqidchilari bo‘lganlar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, islom moliyasi faoliyatini tashkil etish tamoyillari adolat, shaffoflik va ijtimoiy mas’uliyatga asoslanadi. Ushbu tizimda foizli operatsiyalarning taqiqlanishi, risk va foydaning sheriklik asosida taqsimlanishi hamda real aktivlarga tayangan moliyalashtirish muhim o‘rin egallaydi. Islom moliyasi zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda barqaror va ishonchli moliyaviy model sifatida rivojlanib bormoqda. Shu sababli, uning tamoyillarini chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali joriy etish iqtisodiy taraqqiyot hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR

¹⁰ Baydaulet Ye.A. Islomiy moliya asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston” 2019. -3 b.

¹¹ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimai va tafsiri. T.: “TIU”, 2009.

¹² Abdullaev R.V., Dusanov S.M. Islom iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlar. T.: “TIU”, 2007. -16 b.

1. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. Science and Education, 2(10), 636-642.
2. AA, Mulaydinov Farkhod Muratovich. (2021). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari va amaliy ahamiyati. axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiyalarning zamonaviy muammolari va yechimlari onlayn respublika ilmiy-texnik anjumanining ma’ruzalar to‘plami, 2 (6), 794
3. A Abdullaev. (2021). Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, uning ...
4. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021). Islamic banking management, assets and liabilities. Scientific progress, 2 (6), 1525-1532.
5. M Mamadjonov, A Abdullayev, I Abdurahmonov, A Mamadaliyev. (2021). Challenges of management in the digital economy. Scientific progress, 2 (6), 1533-1537.
6. M.Tojiyeva, A.Abdullayev. (2021). The use of modern technologies in statistical data collection. Asian Journal of Multidimensional Research 10 (12), 250-254.
7. O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). Islom moliyasining xususiyatlari. Scientific progress 2 (8), 634-638.